



TILLARNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI HAQIDA MULOHAZALAR

Xodjiyeva Sevinch Rajab qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich talabasi
e-mail: ozodrajab1540@gmail.com.

Annotasiya. Ushbu maqolada tillarning qanday, qachon paydo bo‘lganligi haqida turli xil farazlar, taxminlar, fikrlar keltirilgan. Har bir farazni nega til paydo bo‘lishiga asos bo‘lolmasligi hayotiy misollar orqali yoritilgan. Bundan tashqari, tillar qanday rivojlanganligi, hozirgi ko‘rinishiga yetib kelguncha qanday yo‘llarni bosib o‘tgan bosqichlarga ajratib tushuntirilgan. Milliy til, uning grammatik, leksik tuzilishi, morfemalar tartibi va boyib borish tartiblari izohlangan.

Аннотация. В данной статье приведены различные гипотезы, предположения и мнения о том, как и когда возникли языки. Каждая гипотеза раскрыта на основе жизненных примеров, показывающих, почему она не может служить окончательным основанием происхождения языка. Кроме того, объясняется, как развивались языки и какие этапы они прошли, прежде чем прийти к современному виду. Также рассматриваются национальный язык, его грамматическое и лексическое строение, порядок морфем и процессы обогащения словарного состава.

Annotation. This article presents various hypotheses, assumptions, and opinions about how and when languages originated. Each hypothesis is explained with real-life examples to show why it cannot serve as a definite basis for the origin of language. In addition, the article describes how languages developed and what stages they went through before reaching their present form. The national language, its grammatical and lexical structure, the order of morphemes, and the processes of vocabulary enrichment are also explained.

Kalit so‘zlar: undovlar farazi, mehnat chaqiriqlari farazi, ijtimoiy kelishuv farazi, substrat va superstrat, milliy til, anologistlar, anomalistlar, tovushga taqlid nazariyasi, milliy til.

Tillarning dastlab avval qayerda va qachon paydo bo‘lganligi haqida aniq, ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ega emasmiz. Bu haqida M.Irisqulov shunday fikr bildiradi “...til taraqqiyotining yozuv paydo bo‘lgandan keyingi davrida ro‘y bergan til taraqqiyoti to‘g‘risida yozma yodgorliklardan foydalanib fikr yuritishimiz mumkin”.[4,11] Ammo tilning qanday paydo bo‘lgani haqida turli xil qarashlar bor. Tilning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi asosiy farazlardan biri tovushga taqlid hisoblanadi.

Yuqoridagi faraz qadimgi Yunonistonda - Demokrit hamda Platon davrida vujudga kelgan. Platon boshliq bir qancha olimlar: “... narsa bilan uning nomi orasidan muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsalarining xususiyatidan tabiatidan kelib chiqqan va ilohiy.



kuch tomonidan o'rnatilgan"-, degan fikrni ilgari surilishgan hamda bu oqim analogistlarda deb nom olgan. Biroq Demokrit va boshqa unga ergashuvchilar tildagi narsalarni nomi bilan narsa orasidagi bog'lanish yo'q, bu nomlar shu tilda suhbat qiluvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan degan qarashni ilgari surishgan hamda bu oqim egalari anomalislar deb atalgan.[2,125]

Undovlar farazi eng keng tarqalgan farazlardan biri bo'lib, ibtidoiy odamlar hayvonlarning baqir chaqirlarini eshitib, o'rganib shular orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalashgan degan qarashdan iborat. Taniqli fransuz olimi Jan Jak Russo ham bu fikrni quvvatlagan. Biroq undovlardan paydo bo'lgan so'zlarning soni juda oz va bu tildek murakkab hodisaning shakllanish ildizi bo'lolmaydi. [4,12]

Tovushga taqlid nazariyasiga kelsak bu faraz XIX asr hatto XX asr boshlarida ham o'z ta'sirini yo'qotmagan nemis olimi V. fon Gumbold ham bu nazariyaning tarafdori bo'lgan. To'g'ri, biz bu nazariyani ham to'liq inkor qilolmaymiz. Sababi hozir ham tuf, uf, voy, dod kabi taqlid so'zlar bor. Lekin ular ham tafakkurning, mehnatning, jamiyatning rolini to'liq qamrab ololmaydi.[5,95]

Mehnat chaqiriqlar farazni ilgari surgan olimlarning fikricha til odamlar jamoa bo'lib mehnat qilayotganlarida mehnatni tashkil qilishda foydalanilgan chaqiriqlar va tovushlar asosida vujudga kelgan deyishadi. Ammo bu farazni narsa va hodisalarning nomini ataydi va na his -hayajonni ifodalaydi.

Ijtimoiy kelishuv farazi XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan bo'lib, bu farazga ko'ra narsalarni atashni odamlar o'zaro kelishib olishgan. Ko'rinib turibdiki, narsalar nomini kelishish uchun ham tilvostasi, albatta, zarur.[4,13] Xulosa qilib aytganda, tilning qanday paydo bo'lganini yuqoridagi hech bir faraz to'lig'icha aniqlay olmaydi. Biroq qaysidir ma'noda ularning har birida bir haqiqat mavjud .Biz tilni qanday yaralganini bilolmaymiz, lekin uning qanday rivojlanganligi haqida ilmiy ma'lumotlarga egamiz.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bizga ko'plab ma'lumotlarni beradi. Professor A.Nurmonov Mahmud Koshg'ariyni qiyosiy tarixiy tilshunoslikning asoschisi deb hisoblaydi va shunday yozadi: "Qiyosiy- tarixiy tilshunoslik XIX asrning birinchi choragiga qadar paydo bo'lgan deyiladi va uning asoschilari sifatida Frans Bob, Rasmus Rask hamda Yakob Grimlar e'tirof etiladi. G'arb olimlari Mahmud Koshg'ariynining "Devon"i bilan XX asrning birinchi choragigacha tanish bo'lishmagan agar tanish bo'lishganda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvogeografiya singari yo'nalishlarning otasi sifatida Mahmud Koshg'ariyni e'tirof etgan bo'lardilar. Uning asarida ma'noning kengayishi (tug'moq faqat odamga nisbatan qo'llangan bo'lsa, keyinchalik hayvonlarga ham qo'llanilgan. O'pka asli odam organi sifatida foydalanilgan keyinchalik esa "achchiq", "g'azab" ma'nolarini ham ifodalay boshlagan. Torayish (Dovon so'zi ilgari qush va omochlarning hammasi ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik omoch ma'nosidagina qo'llanadi.) metafora orqali ma'no kechishi (tug'moq so'zining ma'no kengayishi) va boshqalar ham chetda qolmaydi.



XIII asrga kelib ko‘plab filologik asarlar “Tarjimoni turkiy va arabiy”, Ibn Muhabbatning “Kitobi tarjimoni forsiy va turkiy va mo‘g‘uli” asarlari vujudga kela boshladi. Bulardan so‘ng Markaziy Osiyo tilshunosligida juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar vujudga keldi. Bu, avvalo, Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq.[5,97-100]

Ibtidoiy jamiyatning dastlabki davrlaridagi eng kichik, oddiy hamda uyushgan shakli urug‘ hisoblanadi. Qardosh-urug‘lar qabilalarni tashkil qiladi, vaqt o‘tishi bilan a‘zolar kengayib, kengroq hududga tarqala boshlaydi. Ularning tillari ma‘lum bir hududda o‘z shevasi bilan farqlana boshlaydi. Yangidan yangi sheva vakillarning paydo bo‘lishida ikki omil vaqt va masofa hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Tilshunoslikda farqlash tushunchasi bo‘lib, u tillarning shevalariga parchalanishidir. Vaqt o‘tishi bilan millatlar paydo bo‘la boshladim. Millatning asosiy belgilari, umumiy hudud, umumiy til umumiy madaniyat va ma‘naviy birliklar. Bu kabi uyushmaning tili milliy til deyiladi. Til taraqqiyotining ma‘lum bir davrida so‘zlar qanday hosil bo‘lganligini, uning dastlabki holatini o‘rganuvchi soha diaxroniya. Til taraqqiyotidagi hozirgi bosqichni o‘rganuvchi soha sinxroniyadir. [1,211]

Xulosa qilib aytar ekanman biz tilning qanday paydo bo‘lganini, qachon va kimlar tomonidan yaratilganligi haqida to‘liq, aniq, asosli ma‘lumotlarga ega emasmiz, bizda faqat taxminlar bor xolos. Ammo biz yozma manbalar va bitiktoshlar orqali tilning qay darajada rivojlanganligi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin ekan. Shunday qilib til rivojlanuvchi taraqqiy etuvchi ijtimoiy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.R.R.Sayfullayeva, M.Q.Abzalova, N.S.Mamadaliyeva, D.N.Yo‘ldasheva. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 2020.
- 2.Z.Xolmonova Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent 2020.
3. Nosirjon Ulug‘ov. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent. 2016.

